

Bobojon Ramz Nosirovich xotirasi dillarda mangu!!!

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining 3-talabalar turar joyida 2021-yil 12-oktyabr kuni SXTEB fakultetining "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida o'qituvchisi Usmonov O'tkir Ergashevich talabalarga Bobojon Ramz Nosirovich tavalludining 87 yilligi munosabati bilan davra suhbatini o'tkazdi. Ramz Bobojonovning hayoti va bosib o'tgan yo'llari hamda uning she'rlaridan na'munalar o'qib berdi. Bu davra suhbatini qizg'in muhokamaga aylanib ketdi. Talabalar o'zlari sevgan she'rlardan na'munalar aytib berishdi. Bunaqa tadbirlar tez-tez o'tkazilishi haqida takliflar berildi. Tadbirda SXTEB fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari J.Turdiyev, YRB fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari X.Eshova, institut psixologi M.Muhamedova, tarbiyachi-pedagog A.Xaitovalar ishtirok etdi. Talabalar tadbir haqida o'z fikr va mulohazalarini bildirib, o'z minnatdorchiliklarini bildirishdi.

**Axborot beruvchi 3-TTJ tarbiyachi-pedagogi
A.Xaitova**